

BARQAROR TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM

Nozima Sattibekmirzayeva

Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda qadimda va hozirda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, kadrlarning saviyasi, ilm-fanni hayotimizda tutgan o'rni, uzluksiz ta'limni rivojlantirish, hozirgi yoshlarning bugungi kundagi jamiyatda tutgan o'rni keltirilgan. Jahonning rivojlangan davlatlarida malakali shaxslardan o'rnak olish, buyuk ajdodlarimizning yo'llarini davom ettirish ham shular jumlasidandir.*

Kalit so'zlar: *Ta'limdagi islohotlar, dastur va texnologiyalar, kadrlar tayyorlash, xalqaro mehnat bozori, xususiy sherikchilik, repititor, pedagog, mustaqil fikrli shaxslar.*

Abstract: *This article presents changes in the field of education in Uzbekistan in the past and now, the level of personnel, the role of science in our life, the development of continuous education, and the role of modern youth in today's society. Taking examples from qualified people in the developed countries of the world and continuing the ways of our great ancestors is one of these.*

Key words: *Reforms in education, programs and technologies, personnel training, international labor market, private partnerships, tutors, pedagogues, independent thinkers.*

Абстрактный: *В данной статье представлены изменения в сфере образования Узбекистана в прошлом и настоящем, уровень кадров, роль науки в нашей жизни, развитие непрерывного образования, а также роль современной молодежи в современном обществе. Брать пример с квалифицированных людей в развитых странах мира и продолжать путь наших великих предков – одно из них.*

Ключевые слова: *Реформы в образовании, программах и технологиях, подготовке кадров, международном рынке труда, частном партнерстве, репетиторах, педагогах, независимых мыслителях.*

O'zbekiston mustaqillikka erishganiga mana bu yil 33 yil bo'lmoqda. Shu kungacha olib borilayotgan sa'y-harakatlar, o'tkazilayotgan uchrashuvlar, yangi dasturlar, ilk qadamlar uchun o'zgarishlar kam emas, albatta. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi yangiliklar, yoxud rivojlanish asnosida ro'y berayotgan voqea-hodisalar bugungi yoshlarning ongini qaysidir ma'noda takomillashuviga sabab bo'lmoqda. Lekin hali hal bo'lmagan ta'limdagi islohotlar, dasturlar ishlab chiqishdagi kamchiliklar resurslarning kamligi, yoshlarning ta'lim-tarbiyasidagi saviyasi, yetuk kadrlarning yetishmasligi asosiy dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Yillar o'tgan sayin hayot rivojlana boshladi. Bir nuqtada to'xtab qolish yoki o'sish sur'atlarining keskin kamayishi mamlakat rivojiga putur yetkazishi mumkin. Boshqa mamlakatlar yangi texnologiya, yangi dasturlarni ishlab chiqarayotgan bir paytda, bizning mamlakat ham jonbozlik ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qaysidir soha e'tiborga muhtojligini

ilg'ab, chuqur va har tomonlama o'ylab amalga oshirilgan islohotlarga xalqning mushkulini oson, og'irini yengil, turmushini farovon qiladi, muammolariga yechim topib beradi. Bajarilayotgan ishlar zamirida bugungi muammolarni yechish bilan birga uzoq kelajak ham ko'zlangan bo'lishi lozim.

Hozirgi kunga kelib salmoqli qatlam bo'lgan yoshlarning intilishi, global texnologik jarayonlarni hisobga olmagan holda ta'lim tizimida o'tkazilgan islohotlar kutilgan samarani bermadi. Uning asnosida muammolar ko'paysa ko'paydiki, kamaymadi.

Birinch Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, ta'lim sifatini yaxshilash borasida juda ko'p yangi texnologiyani olib kirgandilar. Har bir aytgan nutqlarida yoshlarga murojaat qilib, yangi hayotga safarbar etardilar. Shu nutqlaridan birida " Shu aziz muqaddas Vatanimiz sizlarning har biringizga ishonadi. Ana shunday yuksak ishonch barchamizga madadkor bo'lsin. Shu ishonchga hamisha munosib bo'lib yashanglar, aziz farzandlarim", deb aytgandilar.

Yangi Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham bu yo'lni davom ettirar ekanlar, yangi loyihalarni ishlab chiqarishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Dastabki saylov paytlarida kelajagi, Yangi O'zbekistonni barpo etish borasida fikrlari yana bir qadam tashlashimizga turtki bo'ldi. " Ularning ham niyati- O'zbekistonni rivojlantirish. Shuning uchun ularning dasturidagi xalqimizga ma'qul takliflarni, albatta, inobatga olamiz. Biz kecha raqobat qilgan bo'lsak, endi bir musht bo'lib, harakat qilishimiz kerak. Men xalqimizning yuksak ishonchini oqlash, orzu-umidlarini ushaltirish, farovon hayotini ta'minlash uchun bor kuch g'ayratim va salohiyatimni sarflashga vada beraman. Yangi O'zbekistonni hammamiz birgalikda quramiz", - degan edilar muhtaram Prezidentimiz.

Yana muhim muammolardan biri oliy o'quv yurtlarida, maktab, maktabgacha ta'lim bosqichlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yangi kadrlarni tayyorlash ko'p fanlardagi ma'lumotlar rus va ingliz tilida ekanligi hozirgi kamchiligimiz hisoblanadi. Buni oldini olish uchun chora-tadbirlar sekinlik bilan hal qilmoqda. Maktabda ham fan o'qituvchilarning bilim darajasi pastiligi, shu asnoda o'quvchilar o'zlari pul to'lagan holda repititorga qatnashlariga to'g'ri kelmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida amaliy tizimni joriy etish, o'qitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishni kengaytirish lozim. Shu bilan birga pedagog va olimlarning xalqaro mehnat bozori sharoitlariga moslashishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSH, Fransiya, Germaniyava Yaponiya modellaridir. Ular, gachi, umumiy qoida va yo'nalishlar bo'yicha bir-biriga yaqin bo'sa-da, lekin ushbu mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ni tasdiqlash to'g'risidagi qonuni hozirda bosh ustuvor yo'nalish bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor

yo'nalishlarini belgilash zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida juda ko'p sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hududlarda , davlat va nodavlat Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish kabilar ustuvor holatda tatbiq etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste'dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil etish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam berilmoqda. Shuningdek, tabiiy va aniq fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarish, " Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" O'zbekistonda ilm-fan rivojiga bosh maqsadlardan biri etib saylanishi yaqqol misol bo'la oladi. O'zbekiston xalqining ushbu sohadagi orzu-istaklari amalga oshirishda barcha kuch-g'ayrat sarflamoqda. Bu tizim yuksak ma'naviyat zamirida qurilib, davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlandi. Oliy ta'lim sifatini universitetlarning jahonning nufuzli universitetlari qatoridan joy olishi , O'zbekistondagi oliy ta'lim olishga qo'yilgan birlamchi talablardan bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'RQ-637-sonli 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risidagi " qonuni.
2. SHAVKAT MIRZIYOEV O'zbekiston Prezidenti 2022—2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning yetti ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi. 2020 yil 29 dekabrda Oliy majlisga Murojaati.
3. DOI:<https://islomkarimov.uz/uz/article/millat-xazinasini-boyitgan-mutafakkir-nomli-sayt>
4. [https://kitobxon.com/oz/kitob/ozbekiston-mustaqillikka-erishish-ostonasida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning " O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasi"](https://kitobxon.com/oz/kitob/ozbekiston-mustaqillikka-erishish-ostonasida-Birinchi-Prezidentimiz-Islom-Karimovning-O'zbekiston-mustaqillikka-erishish-ostonasi)da kitobidan